

# I Xalqaro eksport ko'rgazma-yarmaskasi ochildi

2018-yil 27-noyabr kuni Uzekspomarkazida "Made in Uzbekistan" I Xalqaro eksport ko'rgazma-yarmaskasi ochildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalari ham o'zlarining yangi ishlanmalari bilan ishtirok etishmoqda.



Ushbu ko'rgazmani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksportga yo'naltirilgan sanoat mahsulotlarini namoyish qilish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish va mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek xorijiy hamkorlar bilan barqaror va uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yishdir.

I Xalqaro eksport ko'rgazma-yarmaskasi 30-noyabrga qadar davom etadi.